

O'ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYAVIY SUDGA FUQAROLAR VA YURIDIK
SHAXSLARNING MUROJAATLARI INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL

Abdunazarova Maxliyo Raximovna

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti.

Telefon: +99897-644-89-00. abdunazarovamaxliyo04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15706389>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining huquqiy asoslari, protsessual talablari va uni rivojlantirish yo'llarini o'rganadi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuning normalari tahlil qilinib, Germaniya, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Tojikiston kabi xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda faqat qonunlarga qarshi shikoyat qilish imkonini beruvchi qisman konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etilgan bo'lib, bu tizimning qamrovi va foydalanish imkoniyatlari xalqaro standartlarga, xususan, Venetsiya komissiyasi tavsiyalariga moslashtirishni talab qiladi. Takliflar orasida to'liq konstitutsiyaviy shikoyat modelini joriy etish va protsessual samaradorlikni oshirish kiradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy shikoyat, O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi, huquqiy islohot, qiyosiy huquq, konstitutsiyaviy adolat.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются правовые основы, процессуальные требования и пути развития института конституционной жалобы в Узбекистане. Проанализированы нормы Конституционного закона "О Конституционном суде Республики Узбекистан" и проведено сравнение с опытом таких зарубежных стран, как Германия, Азербайджан, Кыргызстан и Таджикистан. Исследование показывает, что в Узбекистане введен институт частичной конституционной жалобы, позволяющий обжаловать только законы, при этом охват и возможности использования этой системы требуют адаптации к международным стандартам, в частности, к рекомендациям Венецианской комиссии. Среди предложений - внедрение полноценной модели конституционной жалобы и повышение процессуальной эффективности.

Ключевые слова: Конституционная жалоба, Конституционный суд Узбекистана, правовая реформа, сравнительное правоведение, конституционное правосудие.

Abstract. This study examines the legal foundations, procedural requirements, and development paths of the constitutional complaint institution in Uzbekistan. The provisions of the Constitutional Law "On the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan" were analyzed and compared with the experiences of foreign countries such as Germany, Azerbaijan, Kyrgyzstan, and Tajikistan. The research demonstrates that Uzbekistan has implemented a partial constitutional complaint institution, which only allows appeals against laws, and the scope and accessibility of this system require adaptation to international standards, particularly the recommendations of the Venice Commission. The proposals include introducing a full constitutional complaint model and enhancing procedural effectiveness.

Keywords: Constitutional complaint, Constitutional Court of Uzbekistan, legal reform, comparative law, constitutional justice.

Kirish

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning muhim mexanizmi hisoblanadi. O‘zbekistonda bu institut O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunda belgilangan bo‘lib, u “qonun Konstitutsiyaga zid bo‘lgan hollarda, barcha sud himoyasi vositalaridan foydalanilgandan so‘ng Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyatini beradi”¹. Biroq, O‘zbekiston tizimi faqat qonunlarga qarshi shikoyatlarni qamrab oladi, bu esa Germaniya yoki Qirg‘iziston kabi keng qamrovli tizimlarga nisbatan cheklangan hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy shikoyat sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari tizimining huquqiy asoslari tahlil qilinib, uning kamchiliklari aniqlanadi hamda xorijiy tajribaga asoslanib, isloh qilish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqot O‘zbekiston konstitutsiyaviy shikoyat institutini qanday takomillashtirishi mumkin? – degan savolga javob berishga qaratilgan:

Metodologiya

Ushbu tadqiqot ikki asosiy usuldan foydalanadi: huquqiy hujjatlar tahlili va qiyosiy huquq tahlil. Huquqiy hujjatlar tahlilining tanlanishi tadqiqotning maqsadi bilan bog‘liq bo‘lib, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy shikoyat institutining huquqiy asoslarini chuqur o‘rganish, uning kamchiliklарini aniqlash va xorijiy tajribaga asoslangan holda islohot yo‘llarini taklif qilishga qaratilgan. U O‘zbekiston qonunchiligining ichki tuzilishi, talablari va amaliy qo‘llanilishini tahlil qilishga yordam beradi. Qiyosiy huquq usuli esa O‘zbekiston tizimini Germaniya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlarning tajribasi bilan solishtirish orqali uning afzalliklari va kamchiliklari aniqlashga xizmat qiladi Ushbu usullar birgalikda ishlatilishi tadqiqotning ilmiy asosligini va obyektivligini ta’minlaydi, chunki ular huquqiy tizimni ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan yoritadi.

Tadqiqotning asosiy ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuning 27–30-moddalaridan olingan. Bu moddalar fuqarolar va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqini, ish ko‘rish asoslarini, murojaat shakli va talablarini, shuningdek ilova qilinadigan hujjatlarni tartibga soladi² Ushbu hujjatlar tizimning huquqiy asoslarini tahlil qilish va cheklovlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, “Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasi, unda qonunchilik, ijro, sud va munitsipal hujjatlarga qarshi shikoyat qilish huquqi belgilangan”³, “Qirg‘iziston Respublikasining Oliy sud Konstitutsiyaviy palatosi to‘g‘risidagi qonuni, “actio popularis” modelini mustahkamlovchi”⁴, “Tojikiston Respublikasining

¹ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. https://lex.uz/acts/_5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101. Murojaat qilingan sana: 10.06.2025y

² O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. https://lex.uz/acts/_5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101. Murojaat qilingan sana: 10.06.2025y

³ Ozarbayjon Respublikasi. (1995). Ozarbayjon Konstitutsiyasi. MDH davlatlari qonunchiligi ma’lumotnomasi. PravoInform Union

⁴ Qirg‘iziston Respublikasi. (2021). Oliy sudning konstitutsiyaviy palatosi to‘g‘risida qonun. Bishkek: Hukumat nashriyoti.

Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonuni, qisman shikoyat tizimi va 6 oylik murojaat muddatini belgilaydi”⁵.

2021-yildagi qonun asosida konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etildi. “Hozir Konstitutsiyaviy sudga faqat qonun tashabbuslarini olg‘a suruvchilar, masalan, deputatlar murojaat qilishi mumkin, xolos. Hatto senatorlarda ham bunday vakolat yo‘q. Endi esa taklifga ko‘ra, har bir fuqaro shu sudga shikoyat qilishi mumkin bo‘ladi. Senator ham senator emas, oddiy fuqaro sifatida shikoyat qilishga haqli bo‘ladi”⁶, deb qayd etgan Akmal Saidov

Konstitutsiyaviy shikoyat tushunchasiga olimlar turlicha ta’rif beradi. Xususan, Chesheyko-Sohaskiy “konstitutsiyaviy shikoyat Konstitutsiyaviy sudda maxsus sud ish yuritushi orqali shaxslarning fundamental huquqlarini himoya qilish uchun davlat organlariga nisbatan beriladigan da‘vadir”⁷, deb qayd etadi. Mazkur ta’rif B. Banashakning fikrlari bilan yanada aniqlashtiriladi: “Konstitutsiyaviy shikoyat davlat hokimiyati organlarining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida jismoniv va yuridik shaxslarning huquqlari (fuqarolik va ommaviy huquqda) buzilgan hollarda Konstitutsiyaviy sudda maxsus sud ish yuritushi tartibi orqali himoya qilinuvchi institutdi”⁸.

V.S. Kuxlivskiy “konstitutsiyaviy shikoyat”ni keng ma’noda -vakolatli organlar tomonidan konstitutsiyaviy shikoyatlar bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha konstitutsiyaviy sud ish yurituvining bir turi sifatida va tor ma’noda - xususiy huquq subyektiining konstitutsiyaviy nazorat organiga normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyavilagini tekshirish talabi bilan murojaat qilish huquqi sifatida ta’riflaydi⁹.

Konstitutsiyaviy shikoyatning ta’rifi va qamrovi bo‘yicha olimlar o‘rtasida jiddiy bahs mavjud. Chesheykov-Sohaskiy shikoyatni faqat “fundamental huquqlarni himoya qilish uchun maxsus sud ish yuritushi” deb ta’riflaydi, bu esa O‘zbekistonning qisman tizimiga mos keladi, chunki faqat qonunlarga qarshi shikoyatlarga ruxsat beriladi. Biroq, Kuxlivskiy shikoyatni kengroq ma’noda – konstitutsiyaviy nazoratning bir turi sifatida – ko‘radi va uni tor ma’noda shaxslarning murojaat huquqi deb ta’riflaydi. Bu yondashuv Qirg‘izistonning “actio popularis” modeliga yaqinroq, chunki u har qanday normativ hujjatni shikoyat obyekti sifatida qarashga imkon beradi. Banashak esa shikoyatni davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida huquqlar buzilgan hollarga qaratilgan institut deb hisoblaydi. Bu ta’rif O‘zbekiston tizimining cheklovlarini tanqid qilish uchun asos bo‘ladi, chunki sud qarorlari yoki ijro hujjatlari shikoyat ob’ekti sifatida qaralmaydi. Chesheykov-Sohaskiyning cheklangan ta’rifiga qarama-qarshi ravishda, Kuxlivskiy va Banashakning yondashuvi kengroq qamrovni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa O‘zbekiston uchun to‘liq shikoyat modelini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

⁵ Tojikiston Respublikasi. (2021). Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida qonun. Dushanbe: Davlat nashriyoti.

⁶. Saidov, A. (2023). O‘zbekiston konstitutsiyaviy shikoyat tizimini isloh qilish. *Toshkent Legal Review*, 7(1), 23–30.

⁷ Chesheykov-Sohaskiy, O. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyatni aniqlash. *Yevropa konstitutsiyaviy tadqiqotlar jurnali*, 8(3), 45–53

⁸ Banashak, B. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyat huquqiy institut sifatida. *Konstitutsiyaviy huquq jurnali*, 12(4), 56–67.

⁹ Kuxlivskiy, V. S. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyat: qamrov va qo‘llanilishi. “Xalqaro huquqiy tadqiqotlar jurnali”, 15(2), 89–102.

Bundan tashqari, Venetsiya komissiyasining “to‘liq shikoyat modeli konstitutsiyaviy adolatni ta’minlaydi”¹⁰ degan fikrga qarama-qarshi ravishda, ba’zi olimlar cheklangan shikoyat tizimlarining samaradorligini ta’kidlaydi, chunki ular sudlarning ish yukini kamaytiradi. Bu esa O‘zbekiston uchun dolzarb, chunki murojaatlar sonining o‘sishi (1500 taga yetishi) sud ishlarini boshqarishda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Natijalar

O‘zbekistonda konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti 2021-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun bilan qonuniylashtirildi va uning “27-moddaga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslar Konstitutsiyaga zid qonunlarga qarshi shikoyat qilish huquqiga ega bo‘ldi. 28-modda shikoyatlar va davlat organlari murojaatlarini ish ko‘rish asoslari sifatida belgilaydi, 29-modda esa murojaatlarning yozma yoki elektron shaklda bo‘lishi, hujjatlar ro‘yxati va boshqa talablarni keltiradi. 30-modda qo‘srimcha hujjatlar, masalan, normativ-huquqiy hujjat nusxalari va sud himoyasi vositalarining tugallanganligini tasdiqlovchi dalillarni talab qiladi”¹¹. 2021-yil islohotidan so‘ng yillik murojaatlar soni 800–1000 tadan 1500 taga ko‘tarildi, lekin faqat 16% (127 ta) Konstitutsiyaviy sud vakolatiga kirdi .

Qiyosiy tahlil

Germaniyada konstitutsiyaviy shikoyatlar sud ishlarining 95% ni tashkil qiladi va turli normativ hujjatlarni qamrab oladi¹². Ozarbayjonning 130-moddasi qonunchilik, ijro, sud va munitsipal hujjatlarga qarshi shikoyatlarga ruxsat beradi. Qirg‘iziston to‘liq konstitutsiyaviy shikoyat modelini qo‘llaydi, 97-modda va “actio popularis” tamoyiliga asoslanib, har bir shaxs huquqlari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat qilishi mumkin. Tojikiston qisman tizimga ega bo‘lib, normativ hujjatlar va Oliy sud tushuntirishlari shikoyat ob’ekti sifatida qaraladi, lekin murojaat muddati 6 oy bilan cheklangan. Venetsiya komissiyasi to‘liq shikoyat modelini qo‘llab-quvvatlaydi (Venetsiya komissiyasi, 2021).

O‘zbekistondagi muammolar:

O‘zbekiston tizimi faqat qonunlarga qarshi shikoyatlarni qamrab oladi, bu Ozarbayjon yoki Qirg‘izistonga nisbatan cheklangan Murojaatlarning 84% sud vakolatiga kirmaydi, bu protsessual samarasizlik va jamoatchilikning tushunmovchiliginini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, murojaat qilish huquqi cheklangan, masalan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar shikoyat qilish huquqiga ega emas.

Muhokama

O‘zbekistonning qisman konstitutsiyaviy shikoyat tizimi konstitutsiyaviy ustunlikni to‘liq ta’minlashga xalaqit beradi, chunki u qonunlardan tashqari boshqa hujjatlar yoki sud qarorlarini qamrab olmaydi. Qirg‘izistonning “actio popularis” modeli kengroq ishonch va institutsional javobgarlikni ta’minlashini ko‘rsatadi.

¹⁰ Venetsiya komissiyasi. (2021). Konstitutsiyaviy adolat bo'yicha xulosa. Strasburg: Yevropa Kengashi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. <https://lex.uz/acts/-5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101>. Murojaat qilingan sana: 10.06.2025y

¹² Benda, K., & Klein, E. (2004). "Verfassungsprozessrecht". Heidelberg: C. F. Müller Verlag.

Venetsiya komissiyasi keng qamrovli shikoyat mexanizmlarini qo'llab-quvvatlaydi Statistik ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, 2022-yilda 1376 ta, 2023-yilda 1474 ta, 2024-yilda 1400 ta, 2025-yilning birinchi choragida 501 ta konstitutsiyaviy shikoyatlarning kelib tushgani, murojaatlar sonining o'sishi sud ishlarini boshqarishda protsessual islohotlar zarurligini ko'rsatmoqda.

Biroq, shikoyatlarning katta qismi qonunosti hujjatlari va sud iqrarlariga tegishli, bu esa O'zbekistonda to'liq konstitutsiyaviy shikoyat institutning o'rnatilishiga talab borligini bildiradi.

Takliflar:

1. Shikoyat qamrovini barcha normativ hujjatlar va sud qarorlarini qamrab olish uchun kengaytirish.

2. Elektron murojaat jarayonlarini soddalashtirish orqali foydalanish imkonini oshirish.

3. Sud vakolatlardan jamoatchilikni xabardor qilish uchun targ'ibot ishlarini ko'paytirish.

4. Tojikistonidagi kabi 6 oylik murojaat muddatini joriy etish.

Xulosa

O'zbekistonning konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti muhim islohot bo'lsa-da, xalqaro konstitutsiyaviy adolat standartlariga moslashish uchun kengaytirilishi kerak.

To'liq shikoyat modelini joriy etish, protsessual aniqlikni oshirish va Qirg'iziston, Ozarbayjon kabi davlatlar tajribasidan foydalanish orqali O'zbekiston qonun ustuvorligini mustahkamlashi mumkin. Kelgusida taklif etilgan islohotlarning amaliy ta'siri va mintaqaviy konstitutsiyaviy tizimlar bilan mosligini o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. <https://lex.uz/acts/5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101>.
2. Benda, K., & Klein, E. (2004). "Verfassungsprozessrecht". Heidelberg: C. F. Müller Verlag.
3. Chesheykov-Sohaskiy, O. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyatni aniqlash. "Yevropa konstitutsiyaviy tadqiqotlar jurnali", 8(3), 45–53.
4. Kuxlivskiy, V. S. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyat: qamrov va qo'llanilishi. "Xalqaro huquqiy tadqiqotlar jurnali", 15(2), 89–102.
5. Ozarbayjon Respublikasi. (1995). Ozarbayjon Konstitutsiyasi. "MDH davlatlari qonunchiligi ma'lumotnomasi". PravoInform Union.
6. Qirg'iziston Respublikasi. (2021). Oliy sudning konstitutsiyaviy palatasi to'g'risida qonun. Bishkek: Hukumat nashriyoti.
7. Banashak, B. (2021). Konstitutsiyaviy shikoyat huquqiy institut sifatida. Konstitutsiyaviy huquq jurnali 12(4), 56–67.
8. Saidov, A. (2023). O'zbekiston konstitutsiyaviy shikoyat tizimini isloh qilish. Toshkent Legal Review, 7(1), 23–30.

9. Tojikiston Respublikasi. (2021). Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida qonun. Dushanbe: Davlat nashriyoti.
10. Venetsiya komissiyasi. (2021). Konstitutsiyaviy adolat bo‘yicha xulosa. Strasburg: Yevropa Kengashi.